



## O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ IMTIYOZLARI HAMDA BU ORQALI YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH.

**Ibodullayev Abror  
 Axrorovich**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
 "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasi  
 dotsenti Phd*

**Umaraliyev  
 Asrorbek  
 Abdurashidovich**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
 "Soliqlar va budget hisobi" fakulteti St-53/24  
 guruhi talabasi E-mail  
 asrorbekumaraliyev80@gmail.com*

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston soliq tizimida soliq imtiyozlari hamda bu orqali yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish o'rganildi va tahlil qilindi. Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Shuningdek bu turdag'i tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanigan tadbirkorlar uchun soliq imtiyozlari berilishi hamda ularni har tomonlama qo'llab - quvvatlash jarayonlari o'rganib chiqildi. O'zbekiston soliq tizimida bu kabi islohotlarni amalga oshirilishi natijasida ko'plab ish o'rinni yaratiladi, natijada iqtisodiy barqarorlikka erishilish tomonlari ham o'rganildi. Soliq imtiyozlari to'g'risida hamda ulardan to'g'ri foydalanish jarayonlarini soliq to'lovchilar orasida targ'ib qilish hamda ularga bu borasida tushunchalar berish ham maqolada o'rganildi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun bunday imkoniyatlar ya'ni soliq imtiyozlari berish orqali bu tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilar soni ortadi bu orqali esa davlat budgetiga soliq tushumlari ham oshishi tahlil qilindi. Ushbu maqolada yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha va soliq imtiyozlari haqida taklif va xulosalar berildi.

**Kalit so'zlar:**

Yakka tartibdagi tadbirkorlik, soliq imtiyozlari, soliq islohotlari, daromad solig'i, iqtisodiy o'sish, davlat budgeti, raqamlashtirish, moliyaviy barqarorlik, soliq tushumlari.

### KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston soliq tizimida ham iqtisodiyotimiz rivojlanishida muhim o'r'in tutadigan yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish masalasi alohida e'tiborni talab qilib kelmoqda. Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatni rivojlantirish orqali aholini ish bilan ta'minlash hamda mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyati va kichik hamda o'rta biznesni rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu

bois, yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlarga soliq tizimida qulay imkoniyatlar, soliq imtiyozlari berilmoqda. Shu nuqtai nazaridan, davlat tomonidan bu sohaning ko'plab qo'llab-quvvatlash choralar, soliq imtiyozlari joriy etilishi bu faoliyatni yanada jadallik bilan rivojlanishiga xizmat qilib kelmoqda. Bundan tashqari davlatimiz tomonidan ham ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadi kalendar yilda yuz million so'mdan oshmaydigan yakka tartibdagi tadbirkorlar ular bilan mehnat munosabatlarida bo'lган jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlaridan ushbu Kodeks 383-moddasining birinchi qismiga muvofiq yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan stavkalarning 50 foiziga teng miqdordagi soliqni soliq agenti sifatida hisoblab chiqarishga va to'lov manbaida ushlab qolishga haqli, shu kabi islohotlar amalga oshirilmoqda.<sup>1</sup> Amaldagi soliq to'g'risidagi qonunchilik hujjalariha ham o'zgartirishlar kiritilmoqda. Xususan, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inining qat'iy belgilangan stavkalari 10 foizga indeksatsiya qilinmoqda hamda faoliyat turi va joylashgan hududiga qarab eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) belgilamoqda, bunda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahri xalq deputatlari Kengashlariga (amalda tuman (shahar) Kengashlari koefitsiyent belgilashi mumkin) stavkalarni hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha belgilash vakolati berilmoqda, jami yillik daromadi 100 mln so'mgacha bo'lган yakka tartibdagi tadbirkorlarning xodimlari uchun umumiy tartibdagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (12%) yoki jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inining yakka tartibdagi tadbirkor uchun o'rnatilgan qat'iy belgilangan stavkasining 50 foizi miqdorida soliq to'lash (ixtiyoriy tarzda) huquqi berilmoqda, bozor va savdo komplekslarida faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlarning xodimlari uchun ijtimoiy soliqning stavkasi yiliga bazaviy hisoblash miqdorining 6 baravaridan (2,2 million so'm) bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravarigacha (375 ming so'm) pasaytirilmoqda.<sup>2</sup> Bu kabi soliq imtiyozlarini joriy etilishi, qonunchilik hujjalariha o'zgartirishlar kiritilishi natijasida, aholining bandligi ko'payadi davlat budgetiga soliq tushumlari ortadi. Shuningdek, bu kabi soliq imtiyozlarini belgilash O'zbekiston soliq qonunchiligidagi muayyan mezon va talablar asosida amalga oshiriladi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Q. Yahyoyev fikriga ko'ra «Soliq to'lovchilarni soliqdan ozod etish, ular to'laydigan soliq miqdorini (soliq bazasini) kamaytirish yoki soliq to'lash shartini yengillashtirish soliq imtiyozidir». Shuningdek, ushbu iqtisodchining ta'kidlashicha soliq imtiyozi degan termin o'rniga soliq yengilligi termini bu jarayonning mohiyatini ochib beradi. Sh. Gataulin soliq imtiyozlariga quyidagicha ta'rif beradi: «Soliq

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 24.12.2024 yildagi O'RQ-1014-son


<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining "Soliq va budjet siyosatining 2025-yilga mo'ljallangan asosiy yo'naliishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariha o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonun loyihasini tushuntirish

imtiyozlari amaldagi qonunlarga muvofiq ravishda soliqlardan to‘liq yoki qisman ozod qilishdir (skidkalar, chegirib tashlashlar va hokazo)».<sup>3</sup>

Demak, yuqoridagi iqtisodchi olimlarni fikrlariga ko‘ra soliq imtiyozlari deganda soliq to’lovchilarni soliq to’lash majburiyatini kamaytirish, ularga yengillik yaratish hisoblanadi.

**Metadologiya.** Ushbu maqolada O’zbekiston soliq tizimida soliq imtiyozlari va bu orqali yakka tartibdagи tadbirkorlikni rivojlantirish omillari tahlil qilindi. Maqolani tahlil qilish jarayonida ko’plab tahlil usullaridan foydalanildi. O’zbekiston Respublikasi Soliq qo’mitasi va Iqtisodiyot va Moliya vazirligi qonunchilik hujjatlari o’rganildi. Bundan tashqari, statistik tahlil, tahliliy metod va sifatli hamda miqdoriy tahlil, adabiyotlar tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** O’zbekiston soliq tizimida soliq imtiyozlari orqali yakka tartibdagи tadbirkorlikni rivojlantirish yildan yilga o’sayotganini ko’rsatmoqda. Soliq imtiyozlarini qo’llash orqali yakka tartibdagи tadbirkorlar soni ham o’smoqda. Buning natijasida, bo’sh o’rinlari yaratilmoqda va aholini ishsiz qismi ish bilan ta’milanmoqda. Soliq imtiyozlarini belgilashda ham bir necha mezonlar ko’rib chiqiladi.




**1-rasm. Soliq imtiyozlarini belgilash mezonlari.<sup>4</sup>**

<sup>3</sup> A.V. Vahobov, A.S. Jo’rayev; O’zR oliy va o’rta-maxsus ta’lim vazirligi, Toshkent Moliya in-ti, — Toshkent: Sharq, 2009. — 448 b

<sup>4</sup> Chizma muallif tomonidan ishlab chiqildi. Manba A.V. Vahobov, A.S. Jo’rayev; O’zR oliy va o’rta-maxsus ta’lim vazirligi, Toshkent Moliya in-ti, — Toshkent: Sharq, 2009. — 448 b.

Yuqoridagi chizmada O'zbekiston soliq tizimida soliq imtiyozlarini belgilash mezonlari ko'rsatilgan. Soliq imtiyozlarini qo'llash belgilangan mezonlarda kelib chiqqan holda amalda qo'llaniladi. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish maqsadida shu biznes shug'ullanuvchilarga ham soliq imtiyozlarini belgilangan. Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ham qulay imkoniyatlar, soliq imtiyozlarini qo'llanilmoqda.

Soliq imtiyozlarining qo'llanilishi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun rag'batlantiruvchi omil sifatida xizmat qiladi. Biroq, ko'plab tadbirkorlar soliq imtiyozlarini mavjudligi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lmay yoki ulardan foydalanishni bilmasligi sababli soliq imtiyozlaridan foydalana olmayapti.



**2-rasm. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar<sup>5</sup>**

Ushbu rasmda yakka tartibdagi tadbirkorlar haqida ma'lumot berilgan. 2025-yil 1-mart holatiga yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 284 110 nafarga yetdi. Bularidan 236 056 nafari qat'iy summada daromad solig'i to'lovchilar, 45 778 nafari aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar, qolgan 2 276 nafari esa qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari hisoblanadi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar chakana savdo, hunarmandchilik, maishiy xizmat ko'rsatish va boshqa faoliyat turlari bilan faoliyat yuritadi. So'ngi yillarda yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilar soni o'sib kelmoqda. Hududlar kesimida ham soliq imtiyozlaridan foydalanish ham turli darajada aks etadi. Aholisi ko'p bo'lgan hududlarda, iqtisodiy o'sish sur'ati yuqori bo'lgan hududlarda yakka tartibdagi tadbirkorlar soni hamda soliq tushumlari qolgan hududlarga nisbatan yuqori. Bu ko'rsatkichlarni yuqori bo'lishi davlat budgetiga

<sup>5</sup> Manba <https://t.me/fiskaltahlil>

tushumlarni oshishiga hamda mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rinni tutadi.

**Taklif va xulosalar.** Maqolani tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston soliq tizimida soliq imtiyozlari muhimligini ko'rsatdi. Bundan tashqari yakka tartibdagi tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim omil sifatida xizmat qilmoqda. Tadbirkorlik faoliyatini boshlaganlar uchun soliq imtiyozlari rag'batlantiruvchi vosita sifatida amal qiladi va yangi tadbirkorlar sonini o'sishiga olib keladi. Shuningdek, soliq imtiyozlari haqida ko'plab tadbirkorlarda ma'lumot yetarli bo'limganligi sababli targ'ibot ishlarini joriy etish. Soliq organlari hamda boshqa davlat organlari bilan hamkorlikda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun seminar va turli tushuntirish ishlarini olib borishni tashkil etish. Soliq imtiyozlaridan foydalanishda elektron xizmatlarni tashkil etish va avtomatlashtirilgan tizimni joriy qilish. Bu orqali foydalanuvchilarga qulay imkoniyatlar yaratiladi va ularni soni oshishiga olib keladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston respublikasi Soliq kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 24.12.2024 yildagi O'RQ-1014-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Soliq va budget siyosatining 2025-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonun loyihasini tushuntirish.
4. This is the 2023-2024 Edition of this casebook, updated April 15, 2023 (following the revised Edition for 2022-2023) and incorporating the Tax Cuts and Jobs Act. Visit <http://elangdell.cali.org/> for the latest version and for revision history.
5. Law of Income Tax, Bharat Law House Pvt. Ltd., T-1/95, Mangolpuri Industrial Area, Phase I, New Delhi-110 083.
6. Sirojiddinovich, Sayitmurotov Suxrobiddin, and Xasanov Axmadjon Shodiyarovich. "SOLIQ IMTIYOZLARI ORQALI INNOVATSION BIZNESNI RIVOJLANTIRISH." *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE*. Vol. 3. No. 29. 2024.
7. Xursanaliev, Boburmirzo. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishida xorijiy tajriba." *Qo'qon universiteti xabarnomasi* 10 (2024): 21-24.
8. <https://stat.uz/uz/>
9. <https://lex.uz/>